

AMIR TEMUR HARBIY YURISHLARIDA QO'SHINLARNI FRONT ORTI TA'MINOTI MASALALARINI XORIJ OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Iskandarov Jasurbek G'ulom o'g'li

Podpolkovnik, Toshkent Harbiy okrugi,

42219 harbiy qism komandirining moddiy ta'minot bo'yicha o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22045873>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Amir Temur harbiy yurishlarida qo'shinlarni front orti ta'minoti masalalarining xorijiy tarixchilar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda xorij olimlarining asarlaridagi ma'lumotlar muhim manba sifatida ko'rib chiqiladi. Tahlil natijasida Amir Temur yurishlarining muvaffaqiyatga erishishda harbiy strategiya bilan bir qatorda ta'minot masalalari muhim omil bo'lganligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar, harbiy yurishlar, qo'shin ta'minoti, xorijiy tarixshunoslik.

Annotation. This thesis analyzes the study of the logistical support of troops during Amir Temur's military campaigns by foreign historians and researchers. The study examines information presented in the works of foreign scholars as important sources for understanding the organization and provision of Timur's military forces. The analysis demonstrates that, alongside military strategy, logistical support constituted a significant factor in the success of Amir Timur's military campaigns.

Keywords: Amir Timur, Timurids, military campaigns, military logistics, troop supply, foreign historiography.

Аннотация: В данной диссертации анализируется исследование вопросов тылового снабжения войск во время военных кампаний Амира Тимура, проведенное зарубежными историками и исследователями. В качестве важного источника рассматривается информация из работ зарубежных ученых. Анализ показывает, что наряду с военной стратегией, вопросы снабжения играли важную роль в успехе кампаний Амира Тимура.

Ключевые слова: Амир Тимур, Тимуриды, военные кампании, армейское снабжение, зарубежная историография.

Amir Temur hayoti va faoliyati har bir davrda dunyo olimlarining diqqat markazida bo'lib keldi. G'arb tarixshunosligida Amir Temur shaxsiga e'tibor XVI asrdanoq va kelgusi davrlarda uning hayoti, faoliyatiga qiziqish doimo ortib borgan edi. Mashhur tarixchilar E.Gibbon, F.Shlosser, G.Veber, Jan Pol Ru va boshqalar o'z asarlarida Amir Temurning yurishlarda front orti ta'minoti bo'yicha ma'lumotlar berganlar. Jahon tarixshunosligida Amir Temurning harbiy yurishlari to'g'risida ko'plab monografiya va maqolalar yozilib nashr etilgan.

Yevropalik tadqiqotchilar Sohibqiron haqidagi ma'lumotlarni XV asrda yashagan Vizantiya tarixchisi Laonik Kalkondil yozgan "Yunon imperiyasining tanazzuli" va "Turklar saltanatining qaror topishi" kitobidan olishgani haqida fikrlar bor. Mazkur asar 1583- yilda yozilgan bo'lib, uning 14 bobdan iborat birinchi jildi batamom Sohibqiron hamda uning yurishlari, qo'shinlarni ta'minot masalalariga bag'ishlanib, u Temur, Tamerlan deb tilga olinadi.

Amerikalik tarixchi Richard Nelson: - harbiy qo'mondonga beriladigan eng xolis baho – uning janglarda erishgan g'alabasining bosh poydevori qo'shinlarni uzliksiz ta'minotidir... Temur barcha davr buyuk harbiy qo'mondonlari orasida alohida o'rin egallaydi. Temur ulkan

strateg ham bo'lgan, unda janglarda qo'shin ta'minot zaxiralari juda oz qolganda oqilona chora-tadbirlari natijasida muammoga yechim topa olishdek ajoyib xususiyat mavjud edi, – deb ta'kidlagan.

Buyuk sarkarda sifatida Temur o'z jangchilarini doimo kurashchan vaziyatda tutgan. Dushmanini qattiq ta'qib qilib borish 30 yoshli Temur uchun uzunligi 2000 milgacha bo'lgan imperiya tuzishga imkon beradi. U jangga uzoq tayyorlanish davomida ta'minot masalalarini hal qilib bulganidan so'nggina tez, shiddatli hujum uyushtirishni oldiga maqsad qilib quygan. “Noto'g'ri holat, vaziyatda mingta jangchi bilan turgandan ko'ra, o'nta jangchi bilan to'g'ri holat, vaziyatda turgan ma'qul”, – deb hisoblardi Amir Temur. U shaharni qamal qilganda, shahar devori orqasida hech qachon ta'minot masalalarida uzilish kuzatilmagan.

Rui Gonsales de Klavixo ko'rgan kechirganlari haqida shunday yozadi: “Shaharning chekkasida bir qal'a bor. Yuzaki qaraganda, qal'a tekis yerda qurilganday. Lekin uning atrofi chuqur jarlikdan iborat. Shu sababli qal'aning yoniga borib bo'lmaydi. Bu qal'ada podshoh o'z boyliklarini saqlar edi. Unga podshohning odamlaridan tashqari hech kim kirmasdi. Shu qal'ada podshoh asir tushgan ustalardan mingga yaqinini ham saqlar edi. Bular yil-o'n ikki oy ishlab, sovut, qalqon, yoy va nayzalar tayyorlar edilar”.

Rus generali M.I. Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san'ati, strategiya va taktikasi” deb nomlangan asarida “Amir Temur qo'shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi”, deb yozib qoldirgan. Amir Temurning qo'shinlari nafaqat otliq va piyoda qo'shnlardan tashkil topgan, balki, ularni boshqaruv organlari, jangovar qo'shin, jangovar ta'minot qo'shini, moddiy-ta'minot qo'shinlari ham mavjudligini e'tirof etish joiz. Amir Temurning davlat rahbari sifatidagi faoliyati avvalidagi muhim tadbirlardan biri ishonchli gvardiya-shaxsiy qo'riqchilar bo'linmasini tuzish bo'ldi. Gvardiya tuzilib, ushbu bo'linmani ta'minot masalariga alohida e'tibor qaratilib kelindi.

XVII asrdan boshlab shakllangan fransuz sharqshunoslik maktabi faoliyati vositasida Markaziy Osiyo tarixi, madaniyati, fani va san'atiga qiziqish kuchaygan. Sohibqironga bag'ishlangan asosiy sharq manbalarini fransuz tiliga tarjima qilish fransuz sharqshunosligining diqqat-markazida bo'lib kelgan va kelmoqda. SHarafuddin Ali Yazdiy “Zafarnomasining F.Peti Krya tarjimasi (Parij, 1722), Ibn Arabshohning “Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur” asarining “Buyuk Tamerlan” tarixi bilan V.Vate tarjimasi (Parij, 1658), Abulg'oz Bahodirxonning “Mo'g'ullar va tatarlar sulolasi tarixi”ning Baron Demezson tarjimasi (Layden, 1726), Abdurazzoq Samarqandiyning “Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni” asarining A.Gallan tarjimasi (Parij, 1715), Ibn Xoldun “Tarjimai holi”ning V.Slan tarjimasi (Parij, 1852) kabi ko'plab tarjimalarni ko'rsatish mumkin. Ayni biz yashayotgan davrda jahon tarixshunosligi va sharqshunosligi fanlarida ilmiy yo'nalish “Temurshunoslik”shakllandi. Parijda nashr qilinayotgan, dunyoda yagona maxsus “Temuriylar” jurnali fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Fridrix Shlosser (1776-1861) esa o'zining “Yalpi tarix” kitobida Sohibqironni harbiy yurishlarida har tomonlama ta'minotni tashkillashtirganiga yuksak baho beradi: “Omadli jangchi dunyoning yagona hukmdori, taktik va strategik bilimlarni uyg'unlashtirgan zot”. Shu o'rinda Kastiliya va Leon qiroli Enriko III (1390-1407) ning elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga-Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)” asariga e'tiborimizni qaratamiz. Klavixoning ta'kidlashicha, Amir Temur qo'shinlarni qurol-yarog' bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan.

Xususan Sohibqiron yetti yil davomida Samarqand qasriga kirganida mahbuslar yasagan uch ming yaqin sovut va ko'plab qurol-aslahalarni olib kirishlarini buyurarkan, uning oldidan juda ko'p dubulg'a va qurol-aslahalarni olib o'tishdi. Temurbek bu jang kiyimlarini o'z yaqinlariga va ishonchli odamlariga bo'lishib berdi. Bu dubulg'alar dumaloq hamda uzunroq yasalgan ediki, u boshga kiyilganda odamning yuzini-da to'sib turadigan, ko'tarib-tushuriladigan bo'lishi bilan birga himoya vazifasini bajaruvchi kichik temirchalar ham qadalgan edi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temurning uzoq masofali harbiy yurishlarini ta'minlash masalasi uning davlat boshqaruvi va harbiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Xorij olimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Temur saltanatining harbiy salohiyatini tushunishda qo'shnlarning moddiy ta'minoti va hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish kabi omillarini kompleks o'rganish zarur.

Harbiy muvaffaqiyatlarini faqat uning shaxsiy harbiy iste'dodi yoki jangovar strategiyasi bilan izohlash yetarli emas.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy san'ati, jumladan, taktika, operativ san'at, strategiyasida qo'shin front orti ta'minoti masalalari nafaqat milliy harbiy san'at rivojiga, balki, dunyo harbiy san'atining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. "Fan", Toshkent, 2018- yil.
2. Rui Gonsales de Klavixo. Kundalik.
3. Греков Б. Д., Якубовский А. Ю. Олтип Урда.
4. Рахимова З.И. К истории костюма народов. Узбекистана. Журнал "Санъат" 2005 й.
5. Ivanin M.I. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur harbiy san'ati, strategiyasi va taktikasi–Toshkent: Yangi asr avlodi.